

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

№ 636

« 29 » 08 2022 y.



HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINING TABIIY ASOSLARI

FANINING SILLABUSI

Bilim sohasi:

1000 000 -Xizmatlar

Ta'lim sohasi:

1020 000 –Gigiena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi

Bakalavriat

61020200- Mehnat muhofazasi va texnika

yo'nalishi

xavfsizligi (tarmoqlar bo'yicha)

Qarshi-2022

Tuzuvchilar:
Raximov O.D.,
Muradov S.H

–“Ekologiya va mehnat muhofazasi” kafedrası professorı

–“Mehnat muhofazasi, ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar xavfsizligi” (sanoatda) mutahassisligi magistranti

Taqrizchilar:
Siddiqov I.X.

– Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
«Energiya ta'minlash tizimlari» kafedrası
mudiri, t.f.d., prof.

– Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi texnik
ta'minot va ekspluatatsiya bo'limi boshlig'i,
t.f.n., dotsent

Yuldoshev O' R.

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “Ekologiya va mehnat muhofazasi” kafedrasining 2022 yil 08.26. dagi 1 son yig'ilishida hamda “Geologiya va konchilik ishi” fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil 08.27. dagi 1 son yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil ____ dagi ____ son yig'ilishi qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi

Kafedra mudiri:

SH.R.Turdiyev

M.J. G'ofirov

R.A.Eshonqulov

“ HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINING TABIIY ASOSLARI ” FANI SILLABUSI

Fan/modul kodi HFT3506	O'quv yili 2022-2023	Semestr(lar) II	Haftadagi dars soatlari 6
Fan/modul turi Tanlov fanlar	Ta'lim tili O'zbek/rus		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		
Hayot faoliyati xavfsizligining tabiiy asoslari	90		
			Jami yuklama (soat)
			90
			180

O'qituvchi haqida ma'lumot

Kafedra nomi O'qituvchilar	Ekologiya va mehnat muhofazasi F.i.sh.	Telefon nomeri	e-mail
Ma'ruzachi	Raximov Okiyabr Dustakbilovich	+998 97 3100588	rahmat1959@mail.ru
Amaliy mashg'ulot	Raximov Okiyabr Dustakbilovich	+998 97 3100588	rahmat1959@mail.ru
Laboratoriya mashg'uloti			

I.Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – insonning faoliyat va mehnat faoliyati davrida yuzaga keladigan baxtsiz hodisalarning sabablarini o'rganish asosida faoliyat xavfsizligini oshirish uslublari va usullarini ishlab chiquvchi, insonning mehnat va tabiat bilan birgalikdagi faoliyatini nazariy va amaliy bilimlarni o'rgatishga, hamda ularni amaliyotda tatbiq etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirishdir. Shuningdek, atrof muhitni muhofaza qilish muammolarini, kelib chiqish sabablarini, uni himo qilish vositalari va samarali usullarini, chiqindisiz texnologiya hosil qilish tamoyillarini yoritish, talabalarda ekologik dunyoqarash, ekologiy e'tiqod va madaniyatni shakllantirishdan iboratdir.

Bakalavrlarga insonning hayotiy faoliyati davrida, jumladan madaniy-maishiy xizmatda, ishlab chiqarishda, transportda va favqulodda vaziyatlar yuzaga keladigan xavfli omillar (tabiiy, texnologik, antropogen va b.)ning hosil bo'lish qonuniyatlarini, kelib chiqish sabablarini, bartaraf etish, himoyalaniish va oqibatlarini bartaraf etish yullarini o'rganish bo'yicha nazariy bilim berish va amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iboratdir.

Fanning vazifasi – talabalarga inson faoliyati davrida yuzaga keluvchi va xavfsizlikka ta'sir qiluvchi xavfli jarayonlar, faoliyat xavfsizligiga ta'sir etuvchi insonning ruhiy holat va ruhiy xususiyatlar, insonning shaxsiy xususiyatlarini uning xarakteri («temperament-mijoz»), insonning xarakteriga bog'liq holda o'z faoliyatini xavfsiz olib borish yo'llari, baxtsiz hodisalarning psixologik omillari va sabablarini bartaraf etishga oid tadbirlarni amalda

uddalashga doir malaka-mahoratni shakllantirishdan iborat.

Talaba fanni o'rganish jarayonida hayot faoliyatining tabiiy asoslarini, jumladan tabiat va jamiyat o'zaro aloqalarining oqibatlarini, atrof-muhit holatini boshqarish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan bog'liq masalalar bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qiladi.

II. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)

"Hayot faoliyati xavfsizligining tabiiy asoslari" fanini o'zlashtirish jarayonida magistrilar quyidagilar bo'yicha nazariy-amaliy bilimga ega bo'lishi kerak:

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- inson faoliyati xavfsizligini ta'minlovchi asosiy prinsiplar, uslublar va vositalar tizimi;
- xavfsizlik tizimi, uning tahlili va optimallashtirish dasturlari. Faoliyat xavfsizligini boshqarish yo'llari;
- ishlab chiqarishda va favqulodda vaziyatlar vaqtida faoliyat xavfsizligini ta'minlash, sog'lom va xavfsiz ish sharoitlarini yaratish bo'yicha rejali tadbirlar ishlab chiqish;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tahlil qilish, ularni tekshirish va hujjatlashtirish tartiblari;
- inson hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish, baxtsiz hodisalar sabablarini aniqlash uslublarini o'rganish;
- xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan shaxsiy himoya vositalari bilan ishchi-xizmatchilarni ta'minlash tartibi va ularidan foydalanish yo'llari;
- sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini yaratish bo'yicha sanitar-gigienik tadbirlar ishlab chiqish;
- ishlab chiqarishdagi texnik vositalardan, mashina-mexanizmlar, qurilmalar va moslamalardan foydalanishdagi xavfsizlik qoidalarini puxta o'rganish;
- yong'in xavfsizligi, yong'inning kelib chiqish sabablari, uni oldini olish, yong'inni o'chirish texnika vositalari va usullarini o'rganish;
- favqulodda hodisalar va tabiiy ofatlar vaqtida inson hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash;
- radiatsion va kimyoviy vaziyatni baholash usullari;
- xalq xo'jalik ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash yo'llari;
- favqulodda vaziyatlarda kechiktirib bo'lmaydigan tuzatish-tiklash ishlarini tashkil qilish va olib borish
- ekologik muammolarning sabablari;
- ekologik omillar va ularning organizmlarga ta'siri;
- ekotizimlar va ularning barqarorlik shartlari;
- tabiiy muhitning hozirgi holati va kelib chiqayotgan ekologik muammolar;
- fan-texnika taraqqiyotining atrof muhitga ta'siri kabilarni nazariy jihatdan o'zlashtirish va bilishlari lozim *ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur*.
- Yuqorida qayd etilgan nazariy bilimlarga asoslangan holda talaba:
 - ishlab chiqarish va favqulodda vaziyatlar vaqtidagi xavfli va zararli jarayonlarni aniqlash va baholash;
 - hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha maqbul variantlarni tanlashda mustaqil qarorlar qabul qilish;
 - ishchi va xizmatchilarga xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalar o'tish va ularni hujjatlashtirish;
 - malakali ravishda baxtsiz hodisalarpi tekshirish va ularning sabablarini aniqlash;

- mehnat muhofazasi bo'yicha ko'rsatmalar tuzish;
- ishlab chiqarish xonalari va ish joylarining sanitar-gigienik vaziyatini belgilovchi ko'rsatkichlarni (gazlanganlik va changlanganlik darajasi, shovqin va titrash, yoritilganlik, harorat, nisbiy namlik, havoning harakatlanish tezligi, havo bosimi va b.) aniqlovchi asbob-uskunalar va jihozlardan foydalana bilish;
- birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- o't o'chirgichlar va o't o'chirish texnikalarini ishlata bilish;
- favqulodda vaziyatlarda korxonalar ish faoliyatining barqarorligini baholash va uni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish korxonalarida ishchi xizmatchilar va shaxsiy birikmalarni mehnat muhofazasi, favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar vaqtida xavfsizlik choralarini bo'yicha o'qitish hamda ma'naviy tayyorlash
- fuqarolarning hayotiy zarur ehtiyoji bo'lgan ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash uchun tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- davlatimizning ekologiya va tabiatni muhofaza qilish borasida olib borayotgan ichki va tashqi siyosatini tushunib yetish;
- ekologik-huquqiy madaniyat va tafakkurga ega bo'lish *malakalariga ega bo'lishi kerak*.

III. Ta'lim texnologiyalari va uslublari

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o'zlashtirish yetti xil:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadiar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
- mustaqil ta'lim olish va ishlash, kollektivlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko'rsatishi zarur.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish (modul platformasi), darslik, o'quv qo'llanmalari va ma'ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma'ruzalar o'qish, video-audio mashg'ulotlar va elektron resurslar (Internet tarmog'i orqali) dan foydalaniladi.

Dastur talabalar bilimni reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.

IV. Fan tarkibi (ma'ruza mashg'ulotlari)

Nö	Mavzular	Qisqacha mazmuni	soat
1.	1-mavzu. Hayot faoliyat xavfsizligi tabiiy asoslari fanining maqsad va vazifalari. Asosiy tushuncha va tariflar.	Fanning maqsadi, vazifalari va boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Bakalavrlar tayyorlashda tutgan o'ri, ahamiyati, asosiy bo'limlari va ularning qisqacha mazmuni, boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Tinch davrda va favqulodda vaziyatlarda faoliyat xavfsizligining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Mehnat muhofazasi va favqulodda vaziyatlar bo'yicha davlat siyosati.	2
2.	2-mavzu. Hayot faoliyat xavfsizligining nazariy asoslari	Xavfsizlikni tizimiy tahlili. Tahlil usullari. Xavfsizlikni tizimiy tahlilidagi mantiqiy jarayonlar, faoliyat xavfsizligini ta'minlash prinsiplari, usullari va vositalari. Umumiy ta'riflar. Xavfsizlikni ta'minlovchi prinsiplar va yo'nalishlar. Faoliyat xavfsizligini boshqarish. Boshqarishning uslubiy asoslari. HFXTAni boshqarish haqida tushuncha, boshqarishga sistemali yondoshish. Hayotiy sikl bosqichi. Faoliyat dekompozitsiyasi.	2
3.	3-mavzu. Hayot Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligi.	Mehnat muhofazasining huquqiy asoslari. Mehnat muhofazasiga oid qonunlar, standartlar va me'yoriy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun», «Mehnat kodeksi»da mehnat muhofazasining aks etishi.	2
4.	4-mavzu. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligining tashkiliy asoslari.	Kasaba uyushmalarining mehnatni muhofaza qilishni tashkil etishdagi roli. Ish vaqti va dam olish rejimi. Ayollar va yoshlar mehnatni muhofaza qilish. Tibbiy profilaktik tadbirlar. Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish. Maxsus kiyim boshlar, shaxsiy himoya vositalari va profilaktik (parxez) oziq-ovqatlar bilan ta'minlash. Ishlarni og'irlik va xavflilik-zararlik darajasi bo'yicha tasniflashi. Jarohatlanish ko'rsatkichlari, ularning sabablarini tahlil qilish usullari. Mehnat qonunlariga rioya etilishini nazorat qilish. Davlat va jamoat nazorati. Mehnat qonunlarini buzganlik uchun javobgarlik.	2
5.	5-mavzu. Faoliyat xavfsizligining ergonomik va psixologik asoslari	Ergonomika haqida tushuncha. Tizim faolnyatini kafolatlavchi muvofiqliklar: (moslashuvchanliklar): ma'lumot berish (axborot), biofizik, energetik, fazoviy-antropometrik va texnik-estetik. Faoliyat xavfsizligi psixologiyasi. Ruhiy jarayonlar. Ruhiy xususiyatlar va ruhiy vaziyat. Baxtsiz hodisalarning asosiy psixologik sabablari, charchash, toliqish, kasallik, kasbiy malaka va bilimning kamligi, jamoadagi ma'naviy muhit, mehnat sharoiti, shaxsiy moddiy manfaatlar, ish turiga ishtirokining ruhiy xususiyatlarini to'g'ri kelmasligi, hayajonlanish, baxtsiz hodisalaridan keyin ekstremal sharoitlarda kasbiy qobiliyatni susayishi, alkogol,	2

		narkotik va boshqa dorilarni iste'mol qilinishi, ob-havo o'zgarishini ta'siri.	
6.	6-mavzu. Ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigienasi.	Ishlab chiqarish sanitariyasining vazifalari. Umumiy tushuncha va ta'riflar, kasb kasalligining oldini olish va shaxsiy gigiena, ishlab chiqarish xonalarning mikroiklimi. Mikroiklim ko'rsatkichlari va ularning sanitariy-gigienik me'yorlari. Mikroiklim ko'rsatkichlarini o'lchash asboblari, ishlab chiqarishda havo muhitini sog'lomlashtirish. Zararli changlar, gazlar, ishlab chiqarish chiqindilari va zaharli moddalar, ularning inson organizmiga ta'siri, havodagi miqdorini aniqlash va me'yoriylash.	2
7.	7-mavzu. Ishlab chiqarish xonalari haqida almashirish va istishni tashkil qilish.	Ishlab chiqarish xonalari haqida almashirishning maqsad va vazifasi, havo almashirish turlari: tabiiy, sun'iy va mahalliy. Ularga qo'yilgan talablar, sinash va hisoblash usullari. Havoni konditsionerlash. Ishlab chiqarish xonalari istish. Istish tizimi turlari va ularga qo'yilgan asosiy talablar.	2
8.	8-mavzu. Ishlab chiqarish binolari va ish joylarini yoritish.	Ishlab chiqarish xonalari va ish o'rinlarini yoritish. Yoritishning turlari va gigienik talablar. Yoritishning asosiy tushuncha va kattaliklari: tabiiy yoritish, sun'iy yoritish.	2
9.	9-mavzu. Ishlab chiqarishda shovqin va titrash.	Ishlab chiqarishda shovqin va uning zararli ta'siri, tovushning asosiy o'leohov birliklari, shovqin darajasini me'yoriylashtirish, shovqindan himoyalash vositalari va usullari, ultratovush va infratovushlardan himoyalash. Titrash haqida umumiy ma'lumot. Titrashning salbiy ta'siri. Titrashning acosiy ko'rsatkichlari, mashina va mexanizmlarning titrashini kamaytirish yo'llari	2
10.	10-mavzu. Muhitning psixologik omillari.	Fizik va ijtimoiy muhit. Makroijtimoiy muhitni aniqlash omillari: demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, diniy, milliy omillar. Mikroijtimoiy muhit omillari.	2
11.	11-mavzu. Elektromagnit va ionli nurlanishlar.	Elektromagnit maydonlari. Ultra yuqori va o'ta yuqori chastotali nurlarning ko'zga, teri qoplamiga, nerv sistemasi, qon tarkibiga va endokrin sistemaga ta'siri. Elektromagnit maydoni me'yorlari.	2
12.	12-mavzu. Ishlab chiqarishda elektr xavfsizligi.	Elektr tokining inson organizmiga fiziologik ta'siri, elektr tokining ta'sir etish miqdorlari, inson organizmning elektr tokiga qarshiligi	2
13.	13-mavzu. Yong'in xavfsizligi. Yong'in oldini olish va yong'in qarshi himoya sistemalari.	Yong'in xavfsizligi sistemasiga ko'yilgan talablar. Yong'in va portlash sabablari. Yonish jarayonining mohiyati, materiallarini yonish va portlash buyicha tasnifi. Yong'in oldini olish sistemasini. Ishlab chiqarishni portlash, yonib-portlash va yong'in xavfi bo'yicha kategoriyalari. Yong'in xavfi zonalar.	2

14	14-mavzu. Yong'inga qarshi himoya sistemasi.	Bino va inshootlarni yong'inga chidamliligi va uni oshirish yo'llari. Yong'in muhofazasini tashkil etish va yong'inni o'chirish. O't o'chiruvchi moddalar, ularning xususiyatlari, o't o'chirgichlar, o't o'chirish qurilmalari va mashinalari. Yong'inni o'chirishni tashkillashtirish	2
15	15-mavzu. Axborot kommunikatsiya tizim texnik vositalaridan foydalanishda xavfsizlik texnikasi.	Axborot kommunikatsiya tizim texnik vositalarining tasnifi. Ularning inson hayoti va faoliyatidagi o'rni, AKT texnik vositalarida yuzaga keladigan xavfli va zararli omillar: zararli nurlanishlar, shovqin va b. Zararli nurlanishlarning inson organizmiga ta'siri va ulardan himoyalalanish yo'llari. MPR-II, TSO-92, TSO-95 standartlari orqali kompyuterlarda yuzaga keladigan elektrik va magnit nurlanishlarga qo'yilgan talablar.	2
16	16-mavzu. Ekologik tizimlar va Biokos qonunlari.	Tizimlar tushunchasi: biologik tizim, ulkan biotizimlar, biotsenoz, ekologik tizimlar (yekotizimlar) ta'rifi. Biotsenozda o'zaro bog'liklik xususiyati, biogeotsenoz va biomalar, qonun va qonuniyat xaqida tushuncha, biokosning asosiy qonuni, komponent qonunlari.	2
17	17-mavzu. Ekologik omillar. Ekotizimlar va organizmlar energetikasi.	Ekologik omillarning umumiy ta'rifi, ekologik omillar tasnifi: abiotik va biotik omillar, ekologik chidamlilik va valentlik.	2
18	18-mavzu. Atmosfera havosini muhofaza qilish. Suv resurslarini muhofaza qilish.	Atmosfera havosining ifloslanish omillari. Kimyoviy, fizik, auktik, issiqlik, elektromagnit va radioaktiv ifloslanishlar. Biosferaga ta'sir etuvchi tabiiy omillar, biosferaga antropogen ta'sirlar.	2
19	19-mavzu. Tuproqlarni muhofaza qilish va yer zahiralardan samarali foydalanish.	Tuproq (edafik) va orografik omillar, tuproqning biotik omillari, tuproqning kislotali muhitiga o'simliklarning munosabatlari, tuproqning tuz rejimiga o'simliklarning reaksiyasi.	2
20	20-mavzu. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish.	O'simliklar tabiatda modda almashinuvidagi va inson hayotidagi roli. Insonning o'simliklarga ta'siri. O'simliklardan samarali foydalanish. Hayvonlarning tabiatda modda aylanib yurishidagi va inson hayotidagi roli. Insonning hayvonot dunyosiga ta'siri. Hayvonot dunyosidan samarali foydalanish va muhofaza qilish tadbirlari	2
21	21-mavzu. Axborot kommunikatsiya tizim va atrof muhit.	Axborot kommunikatsiya tizim haqida umumiy tushuncha, axborot kommunikatsiya tizim texnik vositalarining atrof muhit va inson salomatligiga ta'siri, AKT texnik vositalarida yuzaga keladigan xavfli va zararli omillar, Zararli nurlanishlar, shovqin va titrashni inson salomatligiga ta'siri, ulardan himoyalalanish yo'llari.	2

22	22-mavzu. Hozirgi ekologik krizis va ekologik vaziyat. Ekologiyaning huquqiy asoslari	Hozirgi ekologik krizis (tanqislik) va uning xususiyatlari, ekologik krizis va ekologik vaziyat (situatsiya), insonning muhit va biosferaga ko'rsatayotgan ta'sir doirasi. Ekologiya va atrof muhit himoyasiga oid qonunlar, Nizomlar va me'yoriy hujjatlar. Tashqi muhitni muhofaza qilish bo'yicha tuzilgan xalqaro konvensiyalarda O'zbekistonning ishtiroki	2
----	---	---	---

Amaliy mashg'ulotlar

№	mavzular	soat
1	Ishtab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish	2
2	Baxtsiz hodisalarni tahlil qilish usullari va jarohatlanish ko'rsatkichlarini aniqlash	2
3	Xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalar va ularni hujjatlashtirish tartiblari	2
4	Xavfsizlik texnikasi va ishtab chiqarish sanitarlyasi bo'yicha ko'rsatmalar tuzish	2
5	Ishtab chiqarish xonalarida mexanik havo almashtirish sistemasi ko'rsatkichlarini hisoblash	2
6	Ishtab chiqarish xonalarini sun'iy yoritishni hisoblash	2
7	Elektr jihozlarni yerga ulash ko'rsatkichlarini hisoblash	2
8	Yuzalar va insonlarning radioaktiv zararlantirishini hisoblash	2
9	Ekotizim (biogeotsenozi)ni tahlil qilish va baholash	2
10	Ekologik omillarni aniqlash va tahlil qilish	2
11	Sanoat korxonalaridan atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarning miqdorlarini hisoblash	2
12	Yoqilg'i ishtatlanganda hosil bo'layotgan tutundagi gazlar miqdorini aniqlash	2
13	Neft mahsulotlarini ushtab qoluvchi qurilma hisobi	2
14	Oqova suvlarni tozalash inshootlari ishtab tahlili va hisobi	2
15	Yuzalar va insonlarning radioaktiv zararlantirishini hisoblash	2
16	Korxonalarining ekologik xavfli toifasini aniqlash	2
17	Kompyuter xonalarga bo'lgan ergonomik va sanitar-gigienik talablar	2
18	Yong'in xavfsizligi. Yong'inni oldini olish va yong'inga qarshi himoya sistemalari	2
19	Insonning tabiiy ruhiy holati jihatdan turlarga bo'linishi	2
20	Favqulodda vaziyatlarda faoliyat xavfsizligi asoslari. Umumiy tushuncha va ta'riflar	2
21	Favqulodda vaziyatlarda aholini himoya qilish prinsiplari va usullari	2
22	F'vlar sharoitida xalq xo'jalik ob'ektlarining barqaror ishtabini ta'minlash. F'vlar oqibatlarini bartaraf etish	3

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Laboratoriya mashg'ulotlari

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilgan.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishtab

Talaba mustaqil ishtabining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishtabini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishtabni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlarni bilimlari yoki mavzulari ustida ishtab;

- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishtablarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distanstion) ta'lim;
- referatlar yozishni standart talabalariga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumaning ma'ruza tayyorlash va h.k.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishtablarning mavzulari:

1. Xavfsizlikni ta'minlashda tavakkalchilik nazariyasi.
2. O'zbek Respublikasining "Mehtatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni" va "Mehtat kodeksi" ni o'rganish.
3. Kompyuter xonalarga bo'lgan ergonomik va sanitar-gigienik talablar.
4. Kompyuter va boshqa kommunikatsiya tizimlarida ishtabda xavfsizlik texnikasi.
5. Yong'in xavfsizligi sistemalariga qo'yilgan talablar.
6. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam
7. Favqulodda vaziyatlarda xalq xo'jalik ob'ektlarining barqaror ishtabini ta'minlash yo'llari.
8. Hayot faoliyat xavfsizligining tabiiy va ekologik asoslari
9. O'zbekistondagi ekologik muammolar.
10. Ekologik omillar: biotik, abiotik va antropogen.
11. Atmosfera, uning tarkibi va organizm uchun ahamiyati.
12. Tuproq (edafik) va orografik omillar.
13. Populyatsiya to'g'risida ta'limot
14. Ekosistema va uning ierarxiya qatorlari
15. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning ahamiyati va vazifalari. Tabiiy resurslar tugab qolishining real xavfi.
16. Suv resurslaridan samarali foydalanish
17. O'simliklar va hayvonot dunyosidan samarali foydalanish
18. Orol va Orol bo'yi ekologik muammolari
19. Ekologik krizis va ekologik halokatni oldini olish, biosferadagi muvozanatni saqlash muammolari

VI. Talabalar bilimni baholash mezonlari

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruzalar mashg'ulotlarini ma'ruzalar ishtabga o'tkazish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtab etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiriladi.

Talabalar bilimni O'zbekiston Respublikasi O'qituvchilarning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalar bilimni quyidagi mezonlar asosida:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi,

ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Безопасность жизнедеятельности. Под. Ред. Белова С.В. М.: Высшая школа, 2003г.
2. Хан Т.А., Хан П.А. Безопасность жизнедеятельности. М.: «Феникс», 2003 г.
3. Raximov O.D., Siddiqov I.X., Murodov M.O. Hayot faoliyat xavfsizligi. Ekologiya. Darslik. //Toshkent: "Aloqachi" nashriyoti, 2017.-310b
4. Xolboev B.M., Raximov O.D., Maxmatqulov N.I. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik. I va 2-qismlar. // Toshkent, "Voriz" nashriyoti, 2020.
5. Brenner C. An elementary textbook of psychoanalysis. — New York: International Universities Press, 1973.
6. DSM-III: Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (Third Edition): American Psychiatric Association, 1980.

Qo'shimcha adabiyotlar

7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. — 29 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. — 47 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-moddada
10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

Internet manbalari:

11. www.gov.uz — O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
12. www.lex.uz - O'zR Adliya vazirligi sayti.
13. www.ziyounet.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
14. www.bilim.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
15. www.mintrud.uz — O'zR Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.
16. hfxraximov.uz — Hayot faoliyat xavfsizligi fanidan shaxsiy veb-sayt (prof.O.D.Raximov sayti).